



## BOSH PIYOZNI “QIZIL NUR” NAVINING TAVSIFI

**Xurramov Ulug‘bek Xolmamatovich***Toshkent davlat agrar universiteti “Sabzavotchilik va  
issiqxona xo‘jaligini tashkil etish” kafedrasi professor, q.x.f.d.*[sabkonf-22@mail.ru](mailto:sabkonf-22@mail.ru)**Hayitbayev Doniyor Komiljon o‘g‘li***Qoraqolpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
“Dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi” kafedrasi  
mustaqil izlanuvchisi*

**Annotation:** *In the article, using samples from the world collection of onions, high-yielding promising lines were selected, and economically valuable traits were studied. In the process of studying selected lines and conducting scientific research, the variety "Kyzyl Nur" was created, and the economically valuable traits of the new variety were highlighted.*

**Key words:** *Variety sample, plant, harvest, seedling, seed, marketable product, onion bulb.*

**Kirish**

Bosh piyoz (*Allium cepa* L.) — sabzavot ekinlarining bir pallalilar sinfiga mansub bo‘lib, piyozgullilar (Liliaceae) oilasining *Allium* avlodiga kiradi. Piyozning boshi hamda yashil barglari yil davomida oziq-ovqat sifatida iste‘mol qilinadi. Uning kimyoviy tarkibida oqsillar (1,7–2,5%), shakar moddalar, efir moylari, vitaminlar, fermentlar, shuningdek, kalsiy va fosfor tuzlari mavjud.

Piyoz tarkibidagi efir moylari unga o‘ziga xos hid va achchiq ta‘m beradi. Oddiy bosh piyoz efir moylari miqdoriga qarab quyidagi uch toifaga bo‘linadi:

1. Achchiq navlar — efir moylari miqdori yuqori bo‘lib, 1 kg mahsulotda 0,5 g dan ortiqni tashkil etadi.
2. Yarim achchiq navlar — 1 kg piyozda efir moylari miqdori 0,3–0,5 g oralig‘ida bo‘ladi.
3. Chuchuk navlar — 1 kg mahsulot tarkibida efir moylari 0,3 g dan kam bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida urug‘dan yetishtiriladigan bosh piyoz ikki yillik o‘simlik bo‘lib, birinchi yili yirik piyoz boshi hosil qiladi, ikkinchi yili esa undan gultayoq o‘sib chiqadi, gullaydi va urug‘ hosil qiladi.

Bosh piyoz sovuqqa chidamli o‘simlik hisoblanadi. Urug‘lari 3–5 °C haroratda nish urishni boshlaydi va shu haroratda o‘sishi davom etadi. Uning normal o‘sishi va rivojlanishi uchun eng qulay harorat 18–28 °C oralig‘ida bo‘ladi. Unib chiqqan nihollari 2–3 °C gacha bo‘lgan sovuqqa bardosh bera oladi, pishgan piyoz boshchalari esa qisqa muddatli 10–12 °C sovuqqa ham dosh beradi. Muzlab, keyinchalik asta-



sekin erigan piyozlar hayot faoliyatini saqlab qoladi. Piyoz barglari esa 6–7 °C gacha bo‘lgan sovuqqa chidamlilik ko‘rsatadi. [1.].

**Tajriba uslublar.** Dala tajribalarini o‘tkazishda “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур” (Moskva, 1975), “Изучение и поддержание мировой коллекции капусты” (VIR, 1988), B.J.Azimov., B.B.Azimovlarning «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi» uslubiy qo‘llanmalar asosida Toshkent davlat agrar universiteti qoshida qishloq xo‘jaligi Axborot-maslahat markazi (Extension center) ning o‘quv tajriba maydonida olib borildi. [2; 3; 4.].

**Tajriba natijalari.** Bosh piyoz (*Allium cepa* L.)ning Qizil nur navi ertapishar navi. Analitik seleksiya usulidan foydalangan holda jahon kolleksiyasi nav namunalaridan ajratib olingan namunadan yakka tanlash orqali yaratilgan.

Ekish muddatlari: Turli ekish muddatlarda (erta bahorda - fevral oxiri martning boshlarida; yoz-kuzda -avgust-sentabrda)da ochiq dalaga ko‘chatidan yoki urug‘idan ekib yetishtirish tavsiya qilinadi. Bosh piyoz og‘irligi 140-160 g, Hosildorligi urug‘idan ekilganda 45-50 t/ga, tayyor ko‘chatidan ekib yetishtirilganda 75-85 t/ga, o‘rtacha o‘suv davri 120-130 kun.

O‘simlik tipi piyozlilar, ko‘chat balandligi 37-40 sm, barg yuzasining shakli naysimon, barg rangi momiqsimon qoplamli yashil, barg yuzasi silliq. bosh piyozni shakli yumoloq, biroz keng teskari-tuxumsimon, bosh piyozning ko‘ndalang kesim shakli yumoloq, bosh piyozni g‘ovakligi mavjud emas, bosh piyozni rangi to‘q jigarrang qizil.



1-Rasm. Bosh piyozning yangi Qizil nur navining bosh piyozini ko‘rinishi.

1-jadval

**Yangi yaratilgan bosh piyozning biokimyoviy tarkibi (2024 y.y.)**

| Nav              | Bosh piyozning biokimyoviy tarkibi (100 g hul vazniga nisbatan, % da va milligramm hisobida) |                |                        |               |
|------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|------------------------|---------------|
|                  | Qand, %                                                                                      | Quruq modda, % | Askorbin kislotasi, mg | Nitratlar, mg |
| <b>Qizil nur</b> | 5,9                                                                                          | 7,8            | 13,7                   | 144           |

Bosh piyozning Qizil nur navida qand miqdori 5,9 foiz, quruq modda miqdori 7,8 foiz, askorbin kislotasi 13,7 mg va nitratlar miqdori 144 mg bo'lganligini ko'rsatdi.

2-jadval.

**Bosh piyozning Qizil nur navini biomorfologik belgilari**

| t/r | Belgilar                                                                      | Ifodalanish darajasi  |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|
| 1.  | O'simlik: soxta poyada barglar soni                                           | O'rtacha miqdor       |
| 2.  | Barglar: holati                                                               | Tikdan yarim tikgacha |
| 3.  | Barglar: mum qoplamasi                                                        | O'rtacha              |
| 4.  | Barglar: yashil rang                                                          | O'rtacha intensivlik  |
| 5.  | Barg: tepasining egilishi                                                     | O'rtacha              |
| 6.  | Faqat piyoz navlari uchun: barg: uzunligi                                     | O'rtacha uzunlikda    |
| 7.  | Faqat piyoz navlari uchun: barg: diametri                                     | O'rtacha              |
| 8.  | Faqat piyoz navlari uchun: soxta ildiz: uzunligi (yeng uzun yashil barkkacha) | O'rta uzunlikda       |
| 9.  | Faqat piyoz navlari uchun: soxta ildiz: diametri (poyaning o'rta nuxtasida)   | O'rtacha              |
| 10. | Faqat piyoz navlari uchun: Piyoz: hajmi                                       | O'rta o'lchamli       |
| 11. | Faqat piyoz navlari uchun: Piyoz: balandligi                                  | O'rta balandlikda     |
| 12. | Faqat piyoz navlari uchun: piyoz: balandlik va diametr nisbati                | Katta                 |
| 13. | Piyoz boshi / piyoz: maksimal diametri joylashuvi                             | O'rtasida             |
| 14. | Piyoz boshi / piyoz: bo'yin kengligi                                          | Tor                   |
| 15. | Piyoz boshi / piyoz: shakli (bo'ylama qismida)                                | Dumaloq               |
| 16. | Faqat piyoz navlari uchun: piyoz: uch shakli                                  | Dumaloq               |
| 17. | Piyoz boshi / piyoz: asosiy shakli                                            | Dumaloq               |
| 18. | Piyoz boshi / piyoz: o'rim - yig'imdan keyin qurup po'stlarning yopishishi    | O'rtacha              |
| 19. | Piyoz boshi / piyoz: quruq po'sti qalinligi                                   | O'rtacha qalin        |
| 20. | Piyoz boshi / piyoz: quruq po'stlarning asosiy                                | Jigarrang             |



|     |                                                                                                                         |                       |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|
|     | rangi                                                                                                                   |                       |
| 21. | Piyozi boshi / piyoz: quruq po'stlarning asosiy rangining intensivligi                                                  | O'rtacha intensivlik  |
| 22. | Piyozi boshi / piyoz: quruq po'stirangining soyasi (asosiy rangda tashqari)                                             | Qizg'ish              |
| 23. | Piyozi boshi/piyoz: xalqadagi epidermasining ranglanishi                                                                | Qizg'ish ochjigarrang |
| 24. | Piyozi boshi / piyoz: unishi                                                                                            | Past                  |
| 25. | Piyozi boshi / piyoz: quruq moddalar tarkibi                                                                            | O'rtacha              |
| 26. | Faqat piyoz navlari uchun: bahor yekish paytida strelkovani tendensiyasi                                                | Kuchsiz               |
| 27. | Faqat piyoz navlari uchun: bahorda ekish paytida nomir otishning boshlanish vaqti                                       | O'rtacha              |
| 28. | Faqat piyoz navlari uchun: kuzda ekish paytida tomir otishga moyinlik                                                   | O'rtacha              |
| 29. | Faqat piyoz navlari uchun: kuzgi ekish paytida tortish ishning boshlanish vaqti                                         | O'rtacha              |
| 30. | Faqat piyoz navlari uchun: kuzgi ekish paytida hosilni pishib yetish vaqti (barglar o'simliklarning 80 foiziga tushgan) | O'rtacha              |
| 31. | Faqat piyoz navlari uchun: bahorgi ekish paytida hosilni pishib yetish vaqti                                            | O'rtacha              |
| 32. | Saqlash paytida unib chiqish vaqti                                                                                      | O'rtacha              |
| 33. | Erkaklanib ketishi                                                                                                      | Kuchsiz ifodalangan   |

### Xulosalar

Yangi yaratilgan "Qizil nur" navda ertapisharlik xususiyati ham ko'zatildi. Jumladan o'rtacha o'suv davri 120-130 kun, Hosildorligi urug'idan ekilganda 45-50 t/ga, tayyor ko'chatidan ekib yetishtirilganda 75-85 t/ga, tovarbop hosil miqdori esa o'rtacha gektariga 43-47 yoki ko'chatidan ekilganda 74-82 tonna gektaridan hosil olindi.

Bosh piyozning yangi "Qizil nur" navi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida ekish uchun rasman tavsiya etildi va Qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestriga kiritildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аутко, А.А., Купренко, Н.П. Состояние и перспективы производства лука репчатого в Республике Беларусь // Белорус. с. х. № 2, 2011 – С.10-11.





2. Azimov B.J., Azimov B.B. “Sabzavotchilik, polizchlik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi”.-T. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002 y, 180-198 B.
3. Белик В.Ф.Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве. // М.: Колос, 1992 – С.34.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. // М., «Колос». 1973.